

YOSHLARDA MILLIY TARBIYA SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Jabborov Xazrat Xusenovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası dosenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

xxjabborov@mail.ru

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari, milliy tarbiyaning metodologik asoslari, milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari bo‘yicha psixometrik va ijtimoiy-psixologik so‘rovnomalarning empirik natijalari va ular asosida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar bilan tanishish mumkin.*

***Tayanch tushunchalar:** tarbiya, fazilat, axloq, milliy tarbiya, milliy xarakter, g‘oya, mafkura.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ

***Аннотация:** В данной статье можно ознакомиться с социально-психологическими факторами формирования национального воспитания молодежи, методическими основами национального воспитания, эмпирическими результатами психометрического и социально-психологического опросников по социально-психологическим факторам формирования национального воспитания и сделанные на их основе научные выводы.*

***Основные понятия:** воспитание, добродетель, нравственность, национальное воспитание, национальный характер, идея, идеология.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE FORMATION OF NATIONAL EDUCATION IN YOUNG PEOPLE

***Annotation:** In this article, you can get acquainted with the socio-psychological factors of the formation of national education in young people, the methodological foundations of national education, the empirical results of psychometric and socio-psychological questionnaires on the social and psychological factors of the formation of national education, and the scientific conclusions developed on their basis.*

***Basic concepts:** education, moral character, national education, national character, idea, ideology.*

KIRISH

Mazkur maqolada jahonda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2019-yil 25-iyuldagi 73-Sessiyasida 5-aprelni «Xalqaro axloq kuni» deb belgilanganligi hayotiy zarurat ekanligi nazariy va amaliy empirik jihatlar bilan asoslanadi. Jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan axborot oqimi, virtuallashish jarayonlari millat va elatlarning madaniy uyg'unlashuvini namoyon etmoqda, bu esa ijtimoiy-psixologik tanglik holatlari mamlakatlarning ijtimoiy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali sifatida uning axloqi, ta'lim-tarbiyasini oshirishda ijtimoiy o'zgarishlar integratsiyasiga alohida ahamiyat berilib, YUNESKOning 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida mazkur masalaga e'tibor qaratilgan hamda har qanday mamlakat aholisida milliy tarbiya, axloq va milliy qadriyatini saqlab qolish zarurati ta'kidlangan. Bu borada butun dunyoda barqaror tinchlik, hamjihatlik va unga erishish uchun yoshlar xulq-atvorida milliy va umuminsoniy fazilatlarni mustahkamlashga qaratilgan sa'yi-harakatlarni va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida axborot ko'lamining kengligi, virtuallashishning inson xulq-atvori va tarbiyasiga ta'siri, ijtimoiy ong va ijtimoiy xulq-atvor, ideal shaxs va barkamollik portreti, shaxsning ijtimoiylashuvida milliy va umuminsoniy fazilatlar, milliy xarakter, milliy o'zlikni shakllantirishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada oilaviy tarbiya metodlarining yoshlar milliy tarbiyasi va xulq-atvoriga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni erta psixodiagnostikasi oraqali korreksiyalashga yo'naltirilgan tadqiqot ishlariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarni umuminsoniy fazilatlarga ega barkamol shaxs etib tarbiyalash g'oyalari asosida shakllantirishning zarur huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi: «Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish...»[1] orqali mamlakat istiqboli va intellektual zahirasi bo'lgan yoshlarni «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiya»[2] da ko'rsatilgan kompetentsiyaviy yondashuvga ko'ra milliy fazilatlarni tarkib toptirish vazifalari belgilanganligi ularda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini ilmiy o'rganishda yetarli asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-

son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori, shuningdek hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tarbiya masalasi bilan shug'ulangan aksariyat ijtimoiy psixologlar va jamoat arboblari ham go'daklik davridagi tarbiyaning shaxs shakllanishdagi muhim ahamiyatini ko'rsatib o'tganlar. Aksariyat olimlarning xulosalariga ko'ra, uch yoshgacha bo'lgan go'dak o'zining rivojlanishida shuncha ko'p narsani egallaydiki, u yana shuncha bilimni o'n sakkiz yoshga qadar egallashi mumkin bo'ladi [19].

Masala yuzasidan adabiyotlar tahlili milliy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, milliy va ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emasligini ko'rsatmoqda [22].

Aniqlanishicha, inson xarakteri asosan go'daklik paytida shakllanadi va bu davrda unda qanday xarakter xislatlari shakllansa – uning ikkinchi tabiati sifatida mustahkam o'rnashadi. Keyingi o'zlashtiriladigan narsalar ular kabi chuqur o'rnashmaydi [11]. Demak, har bir ota-ona milliy tarbiya an'alarida go'daklikdagi tarbiyaga katta e'tibor qaratishlari zarur.

Bolalarga xulq-atvor qoidalari bir xil tarzda o'rgatib borilgan. Garchi tarbiyadagi faollik darajalari bilan ajralib tursada, lekin oilaning barcha a'zolari tarbiyada ishtirok etgan.

Ota-ona bilan bo'ladigan har kungi muloqot orqali bolalar dastlab, kattalarning xatti-harakatlari, odatlari va keyin ichki sifatleri; fikrlash tarzlari, ijtimoiy burchini bajarishga va boshqa shu kabilarga bo'lgan munosabatlarni dastlabi ongsiz ravishda keyinchalik ayniqsa kichik maktab yoshidan boshlab ongli ravishda taqlid qiladilar va o'zlashtiradilar.

Milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik jarayonlarini Z.T.Nishonova "Oquvchilarda milliy xususiyatlarni tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari" [21] nomli tadqiqotlarida, milliy an'alar va ijtimoiy omillar ta'sirida ilk o'spirinlarda ma'naviy tassavurlarni shakllanishi masalasi tadqiqotchi M.T.Isoqovanning [12] ishlarida, vataparvarlik tarbiyasi [3], o'smirda milliy birlik tuyg'usini shakllantirish [4], o'smirlar ma'naviyati shakllanishi [5], milliy g'oya tarbiyasi [6], internet

o‘yinlarining o‘smir tarbiyasiga salbiy ta‘siri [7], milliy tarbiyani shakllantirish orqali tahdidbardoshlikni rivojlantirish [8] kabilarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Shunigdek milliy tarbiyani shakllanishida o‘smir xulq-atvori, xarakterologik va etnopsixologik jihatlarini Bojovich L.I., Bodalyov A.A, Bandura A, Uolters R, Bjezinskiy Z, Bogomaz S.A, Gladkix A.G, Vasil’ev I.A, Volovik M.V, Vid D.V, Vasserman L.I, Klubova Y.B, Gadjimirzaev M.M, Grachev G.V, Mel’nik I.K o‘z tadqiqotlarida yoritishgan.

Amerikalik olim M.Midning fikricha, taqlid muloqot, o‘yin, o‘qish va mehnat orqali shakllanadi. Bu jarayon boshqalarni ijtimoiy rolini qabul qilish, ularga o‘xshashga intilishning ko‘rinishidir [20].

Taqlid bolaning yoshiga, idrokiga bog‘liq ravishda ongli yoki ongsiz tarzda yuz berishi mumkin. Bola go‘dak yoshida kattalarga ko‘r-ko‘rona taqlid qiladi, buni ongsiz holatdagi taqlid deyishimiz mumkin.

Fransuz olimi E.Dyurkgeymning fikricha, bola taqlid qilish qobiliyati bilan tug‘iladi, o‘smir yoshiga yetganda esa taqlid qilish faqat tanlov asosidagina amalga oshib, ijtimoiy tajribani keng ma‘noda egallay boshlashi, natijada bolaning xarakteri, temperamenti, qiziqishlari ham shakllanadi. Demak, bola o‘sgan sari, taqlid jarayoni mazmunan o‘zgaradi va ongli xarakter kasb etadi[10].

Tadqiqotchi kanadalik psixolog A.Bandura taqlidni bola sotsializatsiyasi (ijtimoiylashuvi) mexanizmining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, kattalarga taqlid qilish asosida bolalarning axloq sohasidagi ijobiy fikrlari mustahkamlanishi yoki, aksincha, ularda tajovuzkorona xislatlar ham rivojlanishi mumkin [9]. Tadqiqotchi A.Banduraning bu qarashlari ham milliy tarbiya-ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligining yana bir dalilidir.

Kattalar bilan bo‘ladigan har kungi muloqot orqali bolalar dastlab, kattalarning xatti-harakatlari, odatlari, ichki sifatleri; fikrlash tarzlari, ijtimoiy burchini bajarishga va boshqa shu kabilarga bo‘lgan munosabatlariga taqlid qiladilar va o‘zlashtiradilar.

Yuqoridagi masala yuzasidan adabiyotlar tahliliga asoslanib shuni aytish mumkinki, avlodlar ota-onalar va tengqurlardan taqlid orqali muayyan axloqiy va tarbiyaviy stereotiplarni qabul qiladi. Har bir bola go‘daklik chog‘idayoq ixtiyorsiz ravishda o‘zi dunyoga kelgan oila muhitidagi turli-tuman ta‘sirilar va taassurotlar ostida o‘z xalqining mentalitetini va milliy fazilatlarini o‘zlashtira boshlaydi. Bu bola ona tilini o‘rganib alla, ertaklarni eshitganda, maishiy hayot sharoitga qo‘shilganda yuz beradi. Aynan shuning uchun ham milliy tarbiya ijtimoiy- psixologik jarayondir.

Bolalarni tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodlari, jumladan ertak va dostonlardan foydalanish milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik jarayoni sifatida muhim o‘rin tutadi.

Ma‘lumki, bolalarni tartib-intizomga o‘rgatish, uning yoshi bilan uzviy aloqador. Bu sohada har bir xalqning o‘ziga xos usuli va yondashuvi bo‘lib, intizomga

o'rgatish va ularga nisbatan qattiqqo'llik darajasi yosh bosqichlari bilan bog'liq. Tadqiqotchilar shu prinsipda jamiyatlarni to'rt tipga ajratadilar:

go'daklikda ham va bolalikning keyingi davrida ham intizomga talab kuchsiz;

go'daklikda ham va bolalikning keyingi davrida ham intizomga talab qattiq;

go'daklikda intizomga talab qattiq, keyingi davrda esa talab va nazoratning kuchsizlanishi;

go'daklikda bolani erkinroq qo'yilishi, ya'ni talabning kuchsizligi va keyingi davrda talabchanlik va qattiqqo'llikning kuchaytirilishi.

Makur yondashuvni o'rganishimiz, o'zbek xalqining bola tarbiyalash an'anasidagi usul to'rtinchi tipga tegishli bo'lgan. Ya'ni, go'daklik va ilk bolalik paytida (5-6 yosh) ular e'zozlanib, erkin qo'yilgan, 6-7 yoshdan bolaning tarbiyasiga bo'lgan talab kuchaytirib borilgan. Keyingi yillarda ota-onalarning bolaning yoshiga qarab intizomga o'rgatish bo'yicha qarashlari ularning dunyoqarashlariga bog'liq bo'lib bormoqda.

Keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, azaldan o'zbek xalqining tarbiya usullarida go'daklarni e'zozlash, kichik yoshli bolalarni erkin qo'yish, ularga qattiq intizom talabi qo'yilmasligi kabilar o'z ifodasini topib kelgan. Tartib-intizomga bo'lgan talabning kuchayishi bolaning keyingi yosh bosqichlarida (5-6 yoshdan so'ng) amalga oshirilgan. Mazkur yondashuvlar masalaga daxldor tadqiqotchi M.Quronov va X.Jabborov [23] larning "Baxtli bola ma'naviyati" nomli kitobida ham ko'rish mumkin.

Shu munosabat bilan bugungi globalashuvning shiddatli va axboriy sharoitida milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillari tadqiq qilish orqali oiladada farzand tarbiyasi uchun tayanch fazilatlarni shakllantirish, mazkur fazilatlarga ularni odatlantirish, tarbiyada **tushuntirish/ko'rsatish/o'rgatish/namuna** bo'lish kabi ta'sirchan usullarni isloh qilish va shu orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Milliy tarbiya va farzand tarbiyasi haqida gap ketganda beixtiyor taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari inson e'tiborini tortadi.

Ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida ma'naviy tanazzulning asosiy omillari bo'yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma'lumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e'tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya'ni oilada farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik illati millatning ma'naviy tannazulining asosi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi.

O'smirda milliy tarbiya shakllanishida psixologik va ijtimoiy-psixologik nazariyalar va konsepsiyalarni tadqiqotchi Y.V.Subbotskiyning maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy rivojlanishining genezisi haqidagi nazariy konstruksiyasi, S.G.Yakobsonning shaxs o'zini-o'zi tartibga solishda axloqiy tanlovning psixologik tabiati nazariyasi, L.S.Vygotskiyning tarbiya masalasida madaniy-tarixiy konsepsiyasi, A.N.Leontiev, A.V.Zaporojes, D.B.Elkoninlarning bola tarbiyasida uning psixik rivojlanishi nazariyasi, P.Y.Galperinning inson faoliyatining tizimli bosqichma-bosqich shakllanish konsepsiyasi, B.G.Ananov, K.K.Platonov, S.L.Rubinshteynlarning shaxsni rivojlanishida sub'ekt-faoliyat yondashuvi, G.Olportning shaxs yetukligi konsepsiyasi kabilardir. Mazkur konsepsiya va yondashuvlar asosida biz o'smirda milliy tarbiya shakllanishinigg ijtimoiy psixologik omillarini ochib berishga xarakat qildik. Mazkur konsepsiya va yondashuvlarga biz keyingi paragrifda kengroq to'xtalamiz.

Endi milliy tarbiyani ijtimoiy-psixologik, tarixiy va etimologik jihatlariga to'xtalishni maqsad qildik. Jumladan antropologlarning ilmiy xulosalari, odamzodning tashqi ko'rinishi kechki paleolit - kromanonlar davri- bundan 40000 yildan buyon o'zgarmsdan kelmoqdaligini ta'kidlashadi [24]. Bu fikrning zamonaviy fanlar tomonidan tasdiqlanganligi odamning biologik evolyusiyasi tugallangan, degan xulosani berdi.

Odamdagi evolyusion rivojlanishning yakunlanishi undagi madaniy rivojlanishni boshlab beradi. Oliy taraqqiy etgan turlarga xos bo'lgan emotsional-instinktiv xususiyatlar genetik meros sifatida mavjud bo'lib, bu xususiyatlarni chaqaloq dunyoga kelganida, uning rivojlanishining ilk oylarida kuzatish mumkin. Ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) esa odam mohiyatini go'daklikdan boshlab insoniylashuv, madaniylashuv tomonga o'zgartira boradi. Buni psixologik yosh bilan belgilaydigan bo'lsak ilk bolalik yoshiga to'g'ri keladi, ya'ni bir va uch o'smir oralig'i.

Har bir zamon va makondagi insoniyat avlodlari o'zining ijtimoiy-madaniy rivojlanishi va ijtimoiy normalarini ishlab chiqish jarayonida o'z ajdodlarining milliy xarakter va milliy qadriyatlarini ijodiy o'zlashtiruvchi, zamoniylashtiruvchi, boyituvchi va o'zgartiruvchilik xususiyatini namoyon qilib boradi. Har bir avlodning ana shunday ijtimoiy reproduktiv burchlarini amalga oshirilishi ijtimoiy barhayotlikni va insoniyat taraqqiyotning boy, rang-barang madaniy oqimlarini hosil qiladi, saqlab turadi. Demak, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik nuqtai-nazardan har bir avlod vakillari tarixiy, ijtimoiy, madaniy-milliy ko'rsatkichlarni mujassamlashtiruvchi milliy tarbiyaning mahsulidir.

Mazkur masaladagi izlanishlarimiz va kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, barcha davrlarda milliy xarakter va milliy tarbiyani o'rganishda tadqiqotchilar turli xalqlarning bir-birlarini tanishida, bilishida, bilvosita va bevosita millatlararo

muloqotlarda insonning milliy jihatlariga e'tibor berilgan. Qadim zamonlarda ham tarixchilar, sayyohlar, qomusiy bilimga ega mutafakkirlar, jumladan, Ibn Batuta, Strabon, Abu Rayxon Beruniy, Mikluxo Maklay, Lui Gonsales de Klavixo, H.Vamberi va boshqalar qoldirgan asarlar, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy ta'limotlarda ham boshqa xalqlar hayotini qiyosiy o'rganish yo'nalishi mavjudligi bizga ma'lum.

Milliy tarbiya masalasiga daxldor tadqiqotchi M.Quronovning "Milliy tarbiya" nomli monografiyasida qayd qilinishicha XIX asrga kelib chet el ijtimoiy fanlarida boshqa xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qiluvchi kulturantropologiya va sotsiologiya maxsus fanlarga aylanib, "Boshqa dunyo kishisi" muammosini o'rgana boshladi. Bu aslida, boshqacha tarbiya - milliy tarbiyaning tizim, uslublari, maqsadlaridagi xususiyatlarni ilmiy nuqtai-nazardan o'rganish davri boshlanganligini anglatar edi.

"Boshqa dunyo kishisi"ni o'rganish taraqqiyparvar yangilik edi. U "Boshqa mamlakat, millat kishisi qanaqa?", "U o'zini o'rab olgan dunyoni, borliqni qanday idrok qiladi?", "U yaxshilik va yomonlikni qanday tushunadi?", "U o'z hatti harakatlarida qanday mezonlarga asoslanib yo'l tutadi?" kabi savollarga javob berish kerak edi. Bizningcha bu milliy tarbiyaga ijtimoiy va etnopsixologik bilimlarga ehtiyoj sezilganligini ham bildiradi, shuningdek o'sha davrlardan boshlab milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillarga qiziqish ortib borgan.

Odamlarning dunyo haqidagi bilimlari ortib, yangi yerlar ochilib, savdo-sotiq, munosabatlari kengaya borgani sari bu muammoga qiziqish orta bordi. Ayniqsa, Yevropada bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllana borishi va u bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ayniqsa mustamlakachilik davri milliy xususiyatlarni o'rganishga kuchli turtki bo'ldi. Chunki mustamlakachi, missioner, plantatorlar uchun o'z mustamlakalari - mahalliy xalqlar haqida hech bo'lmasa ibtidoiy tasavvurga ega bo'lish foydali edi. Qolaversa, bizning bu ishlarning g'oyaviy jihatlari bu masala mustamlakachilikning kelajagi - mahalliy xalqlarni "madaniy-oqartuv" orqali inglizlashtirish, fransuzlashtirish, ruslashtirish, ya'ni madaniy-ma'naviy mustamlakalarga aylantirishning samaradorligini oshirishlari uchun kerak edi.

O'zga xalqlarning milliy xarakterini o'rganish faqat mo'may foyda orttirish maqsadi bilan cheklanib qolmadi. Chunki mustamlakachilar va mahalliy xalqlar milliy qadriyatlarini orasidagi tafovutni yechish ilmiy muammoga ham aylanib ulgurgan edi. Zero, ovrupolikning boshqa millatlar haqidagi tasavvurida noovrupoliklar shaxs emas, balki qandaydir aqlga zid afsonalar, mistika ta'sirida yashovchi individlar, deb idrok qilinadi (N.S.Trubetskoy, N.A.Berdyaev).

Chunki Osiyoliklar va Afrikaliklar o'zlari uchun milliy, ovrupoliklar uchun g'alati, axloq-odob, urf-odat, an'analarga rioya qilar edilar. Ikkinchi tomondan

mahalliy xalqlar uchun ovrupoliklarning hatti-harakatlari, odob-axloqi, urf- odatlari g'alati ko'rinar edi.

Shu tariqa XIX asrda madaniy antropologiya asosida "noevrupa jamiyatida madaniyat va shaxs", "etnopsixologiya" ilmiy yo'nalishlarini yuqoridagi o'zaro milliy-madaniy tushunmovchiliklar, ziddiyatlarni yechish, bir-birini tushunish ehtiyojlarini yuzaga keltirdi. Natijada "fe'l-atvorning milliyliigi" ilk bor ijtimoiy-siyosiy, keyinchalak esa ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-pedagogik ilmiy tushunchalarga aylana bordi.

O'rganishlarimiz milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralarini ilk bor kashf etgan olimlardan biri amerikalik kulturantropolog Margaret Mid bo'ldi. Uning tadqiqotlari nafaqat geterostereotip(odanning boshqa xalqlar haqidagi bilimlar yig'indisi)ning, balki osiyolik va afrikaliklarda avtostereotip(o'z xalqi haqidagi bilimlar yig'indisi)ning shakllanishiga ham turtki bo'ldi. Zero M.Mid tomonidan 1927 yili nashr ettirilgan "Soming on' age Samoa" (Samoadi ulg'ayish) kitobi tarbiyaning milliyliigi isbotlangan ilk ilmiy-tadqiqot natijasi edi. Biz uchun ushbu tadqiqotning ijtimoiy-psixologik jihati muhimdir va biz buni dissertatsiyamizning tadqiqotlari davomida izohlantirib boramiz.

M.Mid har bir kishining ma'lum milliy muhitdagi xulq-atvorini tushunishda uning bolalikdagi milliy tarbiyaviy ta'sirining nihoyatda katta ahamiyatga egaligini qayd qiladi. Chunki, bolalarning milliy tarbiyaviy ta'sirni qabul qilish jarayoni va kattalarning milliy fe'l-atvorlari orasida izchil aloqa mavjud. Tarbiyaning milliy xususiyat kasb etishida bir avloddan ikkinchi avlodga o'tib keluvchi an'analar, marosim, udum, ishlab-chiqarish va hayotiy malakalar, afsonalar, xulq-atvor shakllari, bolalarga, o'smirlarga, qariyalarga munosabatlarning o'ziga xosligi katta rol o'ynashini M.Mid alohida qayd etadi.

Demak yuqoridagi nazariy tahlilarga asoslanib, milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omili – inson xarakterining milliyligidir deb ayta olamiz. Milliy xarakter konsepsiyasi amerika etnopsixologiya maktabida yaratilgan bo'lib, turli etnoslarda ularning o'zlarigagina xos milliy xarakter mavjud: shaxsning milliy xakteri ustivor psixologik hodisa bo'lib, bu uning milliy xulq-atvorida namoyon bo'ladi; ana shu ko'rsatkichlarga asoslanib. u yoki bu xalqqa, millatga mansub kishilar xakterining modelini - o'rtacha milliy xakter namunasini yaratish mumkin, degan xulosalarni asoslaydi.

Bir millatga mansub kishilar uchun umumiy bo'lgan fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan namunaviy milliy shaxs siymosi mavjudligini birinchi bo'lib A.Kardiner qayd qiladi. U "milliy shaxs"ning shakllanishida eng avvalo oilaning milliy tarbiyaviy ta'sirini, undan keyin ijtimoiy tarbiya omillarining yetakchi rolini alohida qayd qildi.

AQSH etnopsixologlari ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiya va g'arbiy Germaniya aholisining mentalitetini o'rganib, millat uning qadriyatlar tizimi, muloqat shakllari va boshqa ko'rsatkichlari milliy madaniyat ta'sirida shakllanishini asosladilar. Turli mintaqalarda o'tkazilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalarining umumlashtirilishi: muayyan xalqqa xos dunyoqarash, turmush tarzining mavjudligi– xalqlarning turli "namunalari"ni hosil qiladi: turli "namunalar"ning mavjudligi esa bolalarni tarbiyalashda o'ziga xoslikning mavjudligiga, qadriyatlar tizimining kattalar xulq-atvorida aks etishiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

Biroq, o'tkazilgan etnografik va etnopsixologik tadqiqotlar bir xalqning milliy xarakterini o'rganayotgan olimning boshqa madaniyatga mansubligi, o'rganayotgan millat madaniyatidan yaxshi xabardor emasligi natijasida tadqiqot ma'lumotlarini talqin qilishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilishini ko'rsatdi. 50-yillarda amerika etnopsixologiyasining milliy xarakter konsepsiyasiga nisbatan bildirilgan tanqidiy fikrlarining bosh sababi ham shunda edi. Bu tanqid milliy xarakter konsepsiyasiga xos ob'ektiv mohiyatni o'zgartirmadi, aksincha, tadqiqot uslubiyatini takomillashtirishga turtki bo'ldi, xolos.

Bizningcha har bir millatda, mamlakatda davom etayotgan tarbiyaviy jarayon umuminsoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismidir. Demak, har bir davlatda olib borilayotgan siyosat kabi, tarbiya siyosati ham umumbashariy ehtiyojlardan kelib chiqib muvofiqlashtirilmog'i kerak. Chunki insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri barcha xalqlarga bir xil qimmatlidir.

Bugungi kunda milliy qadriyatlarimizga rahna solib turgan mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, erta turmush, farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, o'smir orasidagi jinoyatchilik va korrupsiya kabi ichki tahdidlar, terrorizm, ekstremizm, separatizm, radikalizm, kosmopoltizm, giyohvanlik, odam savdosi va "ommaviy madaniyat" kabi tashqi tahdidlarni "milliy tarbiya fazilatlarini kuchaytirish orqali mustahkam mafkuraviy immunitet"ga erishmay turib bartaraf qilish qiyindir.

Etnopsixologlarning bergan xulosalariga ko'ra, milliy psixologiyani aynan o'sha etnos vakillarining faoliyat, xulq-atvor va muloqatlari jarayonlari orqali o'rganish mumkin. Bizningcha, milliy tarbiya jarayoning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun ham aynan shu yo'ldan bormoq samaralidir. Zero milliy tarbiya (ichki) milliy va millatlararo (tashqi) munosabatlarning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Milliy tarbiya jarayonida makondagi muqimlik va milliy-madaniy jipslikni, birlikni ta'minlovchi etnik, milliy ma'lumotlar sinxron va diaxron shaklda avloddan avlodga uzatiladi.

Shunday qilib, faqat shu millatgagina xos bo'lgan o'ziga xos tarbiyaviy tizim ushbu millatning boshqa millatlardan farq qilishini, ichki yaxlitligini, benazirligini

ta'minlaydi. Shu o'rinda bugungi ijtimoiy psixologiyada har bir millat yoki har bir avlodni milliy tarbiya fazilatlariga odatlantirishda psixodiagnostik metodlar orqali uni monitoring qilib borish, yangi avlod vakillarida milliy tarbiya fazilatlarini singdirish ishlarida qo'l keladi degan umidamiz.

Agarda milliy tarbiya e'tiborsiz qoldirilsa, stixiyali tarzda kechsa, xalqning milliy o'zligini anglash darajasi, milliy g'ururi, madaniyati, vatanparvarlik darajasi susaya boradi.

Chunki har bir individ o'ziga xos milliy-madaniy an'analar, me'yorlari bo'lgan, ya'ni bugungi ijtimoiy psixologik tushunchalar bilan aytganda ijtimoiy norma, ijtimoiy qoida, ijtimoiy qonuniyat va ijtimoiy talablar asosida o'zi yashab turgan jamiyatida shakllanadi. Ana shu urf-odat, me'yorlar, an'analar ruhida ijtimoiylashuvi uni ana shu madaniy-tarixiy birlikning a'zosiga aylantiradi. Bu jarayonni boshqacha tarzda chaqaloqning yo fransuz, yo hind, yo o'zbek bolasiga, o'smirga aylanish jarayoni deb ham ifodalash mumkin. Chaqaloqning (milliy tarbiya ob'ekti sifatida) o'zbek sifatida shakllanishi o'zbeklar uchun an'anaviy bo'lganligi tufayli ko'zga tashlanmaydi, tadqiqotlar shuni qayd qilmoqdaki, shaxs madaniylasha (ukrainlasha, arablasha, o'zbeklasha...) borar ekan, bu milliylashuv jarayoni milliy-ijtimoiy rollar talablaridan kelib chiqib, jamiyatning uzluksiz nazorati ostida amalga oshadi. "Milliy-ijtimoiy rol" tushunchasi, zamonaviy ijtimoiy rollar sotsiologik konsepsiyasi va I.S.Konning (132) ijtimoiy rolga bergan ta'rifidan foydalangan holda milliy rolni muayyan milliy birlik ichida an'anaviy ma'qullangan, shu millatga mansub a'zolaridan ularning yoshi, jinsi va muayyan vaziyatdan kelib chiqib kutiladigan xulq-atvor namunasi" deb ta'riflash mumkin.

Milliy tarbiyani tahlil qilish uchun "O'quvchining milliy roli" tushunchasi sotsiologik kalit vazifasini o'taydi. Chunki bu tushunchaning ko'pqirraligi milliy-zamonaviy hayot jabhalarini, milliy tarbiya yo'nalishlarini ilg'ab olish imkonini beradi. Milliy tarbiya tizimini "milliy rol" tushunchasi orqali o'rganish har bir o'zbek o'g'il-qizining ilk o'smiridan "yaxshi bola", "yaxshi aka, uka, singil, opa" yaxshi jiyan, tog'a, bo'la..."; "yaxshi mehmon, mezbon"; "yaxshi do'st", "odobli bola" kabi "unvonli" munosabatga tayyorlash mexanizmini ochib beradi. Keng ma'noda esa o'quvchining milliy rolini o'zlashtirishga o'z ichiga milliy fazilatlarni, milliy axloq me'yorlarini singdirish, milliy-ijtimoiy hayotga tayyorgarlik jarayonlarini ham anglatadi [13].

Ijtimoiy rollarni milliy tarbiya omil asosida tasniflash, ularning kundalik hayotda, munosabatlarda bajarilishini ilmiy-pedagogik kuzatish - eng zamonaviy va istiqbolli usuldir. U bolaning "qarshisida" turib emas, balki milliy-ilmiy kuzatish imkonini beradi. Bu esa tadqiqotning ob'ektiv natijalariga ega bo'lishining asosiy shartlaridan biridir.

Zamonaviy fanlar ijtimoiy rollarning quyidagi tasnifiga ega: tugʻma, mavqeli ijtimoiy rollar - sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya fanlari odam tugʻilgandanoq yoki hayotning u yoki bu bosqichida kirishadigan "meros qilib olinuvchi" rolli (jinsiy, diniy, milliy, davlat fuqarosi, goʻdaklik, oʻsmirlik, yigitlik, muysafidlik); oʻzgaruvchan, ijtimoiy rollar - doimiy boʻlmagan, oʻzgarishi mumkin boʻlgan rollardir. Masalan, u yoki bu kasbni egallash biror uyushmaga. jamiyatga aʼzo boʻlish va undan chiqish, oʻzgartirish, xatto fuqarolikni oʻzgartirish mumkin.

Biroq tugʻma milliy rollar (oʻzbeklik, fransuzlik va h.k.)dan chiqib boʻlmaydi. Muayyan vaziyatdagi ijtimoiy rollar-yoʻlovchilik, xaridorlik, mehmonlik, mezbonlik va h.k. Bu guruh rollari oʻzgaruvchan rollar bilan kamroq, tugʻma rollar bilan koʻproq aloqada boʻladi. Muayyan vaziyatdagi rollar maxsus va shaxsiy ahamiyatga egaligi tufayli kishini yoʻllovchi, xaridor, mehmon, mezbonga "aylantirsa", shaxsiy fazilatlarini mohiyatidan kelib chiqib shaxsni "doʻst", "dushman". "mehribon kishi", "taqvodor kishi", "fidoyi odam" va boshqalarga aylantiradi. Demak. shaxs tashqi muhit (tabiat, jamiyat, shaxslar) bilan munosabatga kirishganida milliy xususiyat (oʻziga xos boʻlgan "ukraincha", "xakascha", "gruzincha" yondashuv) kasb etadi. Bu fikr ilk bor nemis sotsiologi U.Gerxard tomonidan tugʻma ijtimoiy rol sifatida taklif qilingan, keyinchalik Y.A.Sorokin, Y.A.Tarasov, N.V.Ufimsevalar tomonidan ijtimoiy fanlar istifodasiga kiritishga harakat qilingan edi. Lekin nazariy jihatdan asoslanganligiga qaramasdan milliy rolning tugʻma meros, vorislik xususiyatini oʻrganish, rivojlantirish sotsialistik internatsionalizm tamoyillariga mos kelmasligi tufayli rivojlantirilmadi.

Milliy tarbiyaning manbai - milliylikdir! Shunday ekan biz tadqiqotimizda oʻquvchi uchun tadqiqotimiz bir butun yaxlit idrok etilish uchun bu soʻzlarning ham etimologiyasiga toʻxtalishni maqsad qildi.

"Millat", "milliylik", "milliy gʻurur", "milliy odob", "millatlararo muloqat madaniyati" tushunchalarining oʻzagini arabcha "mil" soʻzi tashkil qiladi. Bu soʻz arabchada "oʻzak", "tub mohiyat", "negiz" maʼnolarini anglatadi. "Millat" soʻzi esa bir necha maʼnoni; 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi; 3) xalq maʼnolarini anglatadi. "Millat", "milliylik" tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning gʻarbona va sharqona tarzlari bor ekanligini koʻramiz. Aniqrogʻi, gʻarbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy oʻzbeklarga borib tutashadi. Yaʼni Ovrupo xalqlari tillariga "millat" tushunchasi lotincha "natio" - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan boʻlsa, Osiyoga esa Islom taʼlimoti orqali yuqoridagi uch xil maʼnoda kirib kelib singdi.

"Tarbiya" soʻzi "milliy tarbiya" tushunchasining tarkibiy qismi boʻlganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogik taʼrif bermoq kerak. Arabcha "tarbiya", "tarbiyat" soʻzlari 1) parvarish qilmoq; taʼlim bermoq; oʻrgatish; odob oʻrgatish; 2) navozish, mehribonlik koʻrsatish: koʻz-quloq boʻlish;

himoya qilish kabi ko'pqirrali mazmunga ega. "Tarbiyachi" so'zi esa shu ko'pqirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchidir. Demak, milliy tarbiyaga quyidagicha **mualliflik ta'rifini** berish mumkin **Milliy tarbiya - yosh avlodni xulq-atvorida o'z xalqiga xos milliy fazilatlarni shakllantirish jarayonidir.**

Milliy tarbiyani milliy g'oya, milliy o'zlik, milliy qadriyat, milliy ma'naviyat, milliy xulq-atvor va ijtimoiylashuv jarayoni bilan aloqadorligini Begmatov A, Rustamov R, Begmurodov M, Davletshin M.G., Abduraxmonov F.R, Jo'raev N, Jakbarov M, Abbasova Sh, Jo'raev T, Yaxshiev A, Zakrullaev A, Iminov B, Karimova V, Qur'onov M, Kenjaeva. D.T kabilar o'z tadqiqotlarida yoritganlar.

Yuqorida masalani o'rgangan tadqiqotchilarni qarashlariga ko'ra o'smirni milliy tarbiya omillari asosida ijtimoiylashuv va milliy tarbiya ta'sirlari orasidagi uygunlik yoki ziddiyat milliy-ma'naviy taraqqiyotga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan e'tiborga bog'liqdir. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan siyosat o'zbek davlatchiligi, an'analari va milliy, umuminsoniy qadriyatlarni chuqur hurmat qilishga, inson qadrini eng oliy darajaga chiqarishga asoslanadi; iqtisodiyot milliy xususiyatga ega; O'zbekiston xalqining umumiy davlat manfaatlarini ifodalovchi milliy bosh milliy g'oyasi mavjud: xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tili - Davlat tilidir va h.k.

"Milliy tarbiya, milliylashuv esa rivojlanayotgan bola shaxsiga ilk o'smirdanoq bevosita ta'sir qilish orqali samaradorlik, tabiiylik, ustivorlik kasb etadi. Dastlab birinchi, keyinchalik ikkinchi signallar sistemasi mazmunini belgilovchi milliy muhit, milliy ruh, oila, mahalla, qishloq muhiti shaxsiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Milliy tarbiya ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida o'rganishlarimizga asoslanib quyidagicha xulosalarni taqdim etish mumkin:

- milliylik - ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy tamoyili natijasida yig'ilgan madaniy qadriyatlar sintezidir. Milliy tarbiya - ana shu madaniy-tadrijiy sintezga asoslangan holda yosh avlodni zamonaviy sharoitga va kelajakka mos ravishda shakllantirish jarayonidir: shaxsning milliyliги va zamonaviyligi - uning ijtimoiylashuvining madaniy darajasidir [14];

- har bir milliy madaniyat - umuminsoniy qadriyatning muayyan ko'rinishidir. Chunki insoniyat - bu xalqlar, millatlardir. Ana shu nuqtai-nazardan milliy tarbiya - har bir insonni o'z milliy madaniyati manbaida, ya'ni muayyan umuminsoniy qadriyat asosida shakllantirishdir[15];

- har bir inson o'z Hayoti davomida turli ijtimoiy rollarni o'taydi. Bu rollar mazmuni, ko'lam, namoyon bo'lish jabhalari ilk o'smirdan boshlab ko'payib, kengayib, murakkablashib, milliylashib boradi. Ana shunday tug'ma va ilk o'zlashtiriluvchi ijtimoiy rollardan biri - shaxsning milliy rolidir[16];

– xalqlar, millatlar mavjud ekan, milliy tarbiya jarayoni bizning xoxishimizdan tashqari ravishda, madaniy determinizm asosida davom etaveradi. Shuning uchun bu jarayonni davlatning manfaatlariga mos ravishda maqsadga yo‘naltirilsa, milliy tarbiya ulkan yaratuvchan taraqqiyparvar ma‘naviy kuchga aylanadi[17];

– har bir zamonda shakllanayotgan avlod bilan oldingi avlod vakllari orasidagi milliy fazilatlar, milliy qadriyatlar, milliy xarakter xususiyatlaridagi o‘zgarish va tendensiyalarni kuzatib borish, ular orasidagi bog‘liqliklarni psixodiagnostik metodlar orqali doimiy ravishda tekshirib, ahamiyatga molik jihatlarni monitoringini olib borish maqsadga muvofiq[18];

– oilada farzand tarbiyasi - oila baxti, farzandlarning tarbiyasi yetuk inson bo‘lib yetishidagi ota-onaning sa‘yi- harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo‘lib yetishishida muhim o‘rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko‘radi, bo‘lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib boradi;

– farzandlarimizni ilm-fan va ta‘lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o‘z o‘rnida tarbiya esa milliy fazilatlarga yo‘g‘rilgan milliy tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq qilishimiz va qo‘lga kiritilgan tahliliy malumotlar asosida maqsadli va manzilli tavsiyalar ishlab chiqib uni amaliyotga tabiiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR

Biz tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda, yoshlarda milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy va salbiy ta‘sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, milliy tarbiyani shakllanishiga xizmat qiladigan asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni o‘rganish masalalari qo‘yilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun nazariy, uslubiy, empirik vazifalar belgilangan va amalga oshirish ketma-ketligi bayon etilgan.

Nazariy vazifalarga: 1) yoshlarda milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy va salbiy ta‘sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar va vositalarni asoslab berish; 2) yoshlarning milliy tarbiyasini asosida turadigan xulq-atvor sog‘lomligi yoki uni buzilishini yuzaga yoshlarning axborot muhiti bilan ularning milliy tarbiyasi va dunyoqarashi o‘zgarishidagi o‘zaro aloqani tadqiq qilish belgilangan.

Uslubiy vazifalarga: 1) tadqiqot maqsadlariga mos keladigan uslubiy apparat va olingan ma‘lumotlar tahlilining umumlashtiruvchi tizimini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish; 2) milliy tarbiya shakllanish jarayonlarini o‘rganishdagi mezonli va sifat usullarni ko‘rib chiqish olingan.

Empirik vazifalarga: 1) ijtimoiy va madaniy muhitda yoshlarning milliy tarbiyasiga ta‘sir etuvchi milliylik kasb etuvchi milliy fazilatlarni saraslash; 2)

yoshlarni milliy tarbiyasidagi o'ziga xos ijobiy sifat va fazilatlarni kognitiv va motivasion parametrlari asosida taqqoslashni inobatga olish muhimligi qayd etilgan.

O'quv yili boshida respondentlar bilan O'quvchilar tarbiyasi darajasi bo'yicha dastlabki tadqiqot o'tkazildi. Bunda o'smirlar tajriba va nazorat guruhlariga bo'lindi. Turli guruhlardagi o'quvchilardan olingan test natijalari Student t-mezoni yordamida bir-biri bilan taqqoslandi, natijalar 1-jadvalga keltirilgan.

1-jadval

N.R. Kapustinning «O'quvchilar tarbiya darajasini diagnostikasi» metodikasi bo'yicha dastlabki natijalar, n=560

Omillar	Tajribadan oldin			
	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	t	p
Mehmondo'stlik	2,8	3,2	1,25	0,018
Tinglovchanlik	3,1	4,2	2,23	0,005
Muruvatlilik	2,7	3,3	0,90	0,016
G'amxo'rlik	2,4	3,5	2,21	0,005
Hojatbarorlik	2,3	3,2	2,60	0,005
Ahillik	3,6	4,1	0,66	0,023
Hurmatlilik	3,2	3,9	1,32	0,015

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01, ***-p<0,001

Olingan natijalardan ko'rinadiki, 100 dan ortiq umuminsoniy va insonparvar fazilatlar orasidan ko'proq milliilik kasb etadigan, ota-onalar tomonidan farzandlariga milliy qadriyat sifatida aytiladigan «mehmondo'stlik», «tinglovchanlik», «muruvatlilik», «g'amxo'rlik», «hojatbarorlik», «ahillik» va «hurmatlilik» kabi fazilatlar o'smirlar milliy tarbiyalanganligining asosi sifatida o'rganildi va o'ziga xos empirik natijalar kuzatildi.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar orasida «mehmondo'stlik» milliy fazilati yetarlicha shakllanmagan. Mehmondo'stlik barcha millatlarga va elatlarga xos bo'lishiga qaramay barchasida mazkur fazilat odamlar xulq-atvorida ijobiy sifatlarni shakllanishiga xizmat qilgan. O'quvchilarda mehmondo'stlik milliy fazilatini

shakllantirish orqaligina do'stlik, o'rtoqlik, odamgarchilik, insonparvarlik tuyg'ulari shakllantiriladi.

«Tinglovchanlik» milliy fazilati datlabki natijalarga ko'ra, o'quvchilarda yashi shakllanmaganligini ko'rsatdi. Xalqimizning milliy tarbiya shakllantirishidagi ijtimoiy tasavvurlarida axloq normalarini yahshi tinglagan, qulogiga ilgan inson barkamolikka tez erishadi degan qarash ustuvor hisoblandi. Shunig uchun milliy tarbiyamizda «yahshi tinglagan yahshi uqadi» degan ibora yuradi.

«Muruvatlilik» milliy fazilatini ham past darajada shakllanganligini ko'rsatdi. Muruvatlilik milliy fazilati yahshilik, sahovat va himmat kabi sifatlarni o'z ichiga oladi. Muruvatlilikda jamoaviylikka yo'nalganlik bor. Jamoaviylik, birlik, jamlanish hamma zamonlarda ham rivojlanishning asosi hisoblangan.

«G'amxo'rlik» milliy fazilati ham yoshlarda yahshi shakllanmagan ekan. G'amxo'rlik fazilati har birimizning qalbimizdan chuqur o'rin egallagan va va kunlik hayotida o'zi sezmaganda tez-tez bajarib turadigan ezgu amallaridan biri hisoblanadi.

«Hojatbarorlik» milliy fazilati ham dastlabki natijalarga ko'ra past ko'rsatkichga ega bo'ldi. Mazkur milliy fazilat bag'rikenglik, hotamtoylik, yahshilik bilan tavsiflangan. Hojatbarorlik milliy fazilati bironi og'irini yengil qilish bilan izohlanadi. Hojatbarorlik alturistik hususiyat kasb etib, hojatbaror inson o'z manfaatidan boshqalarni manfaatini ustun qo'yadi. Hojatbaror inson jamiyatga yo'nalgan bo'ladi. Hojatbarorlik fazilati axloqiy normalarni shakllanishiga xizmat qiladi.

«Ahillik» milliy fazilati ham past ko'rsatkichni qayd qildi. Tarixdan ma'lumki, xalqimiz ko'p sinov va qiyinchiliklarni matonat bilan engib o'tgan. Ota-bobolarimiz azaldan og'ir kunlarda ahil va hamjihat bo'lgan. Har bir qarori, harakatida mo'tabar manbalar, sog'lom aqlga tayangan va shu narsalarga ular ahillik orqali erishsi mumkinligini bilishgan. Ahillik – yagona oila yagona Vatan tuyg'usi, umumiy maqsad va manfaatga asoslangan, do'stlik, qon-qardoshlik, inoqlik va xayrixohlik natijasida hosil bo'ladigan milliy yaqinlik.

«Hurmatlilik» milliy fazilatini ham o'quvchilarda yahshi shakllanmaganligini ko'rsatadi. Hurmatlilik milliy fazilati hurmatga loyqlik, hurmat-e'tibor qozonganlik va izzat-obro'ga egalik bilan izohlanadi. Hurmatlilik milliy fazilati ham xalqimiz orasida milliy qadriyatga aylanib ulgurgan.

Tadqiqotda milliy tarbiya shakllanishiga o'quvchining guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasining aloqasi o'rganildi va muhim ilmiy asoslangan empirik ma'lumotlar olindi, 2-jadvalga qarang.

2-jadval

V.Stefansonning «Guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini o'rganish» metodikasi bo'yicha olingan dastlabki statistik natijalar, n=560

№	Omillar	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		M	S	M	S
1	qaramlik	9,9	1,3	9,3	1,7
2	mustaqillik	6,7	1,1	7,3	1,3
3	muloqotmandlik	4,4	1,2	5,2	1,3
4	odamovilik	4,5	1,4	3,9	1,8
5	kurashga tayyorlik	5,9	1,2	6,5	1,3
6	kurashdan qochish	8,6	0,9	7,3	1,0

2-jadvalda keltirilgan empirik ko'rsatkichlarni tahlil qiladigan bo'lsak, o'smirlar xulq-atvorida «qaramlik» tendensiyalari bo'yicha tajriba guruhida (9,9), nazorat guruhida (9,3) ko'rsatkichlar qayd qilindi. Demak, mazkurni holatni o'smirlarni kimlargadir tobelik bog'liqlanib qolishlar yaqqol namoyon bo'lishi bilan izohlash mumkin. Qolaversa, bu sifat guruhdagi o'zaro hamkorlik va munosabatlarda shaxsning raqobatdan, kurashdan qochishga mjiyillikni ham bildiradi.

O'smirlarning xulq-atvorida «mustaqillik» tendensiyalari esa tajriba guruhida (6,7) nazorat guruhida (7,3) ko'rsatkich qayd qildi. Ushbu holatni o'smirlarda guruhning normalarini o'z fikri va harakatida tasdiqlashga tayyorlik, mustaqil fikrlilikka bog'liq faoliyatni ko'rsatishga hozirligi bilan izohlash mumkin.

«Muloqotmandlik» xulq-atvor tendensiyalari bo'yicha tajriba guruhida (4,4), nazorat guruhida esa (5,2) ko'rsatkichlar qayd qilindi. Demak, bu tendensiya o'smirlarning guruh va uning tashqarisida emotsional aloqalar o'rnatishga intilishi, bu aloqalarning ko'pincha samarali ekanini tasdiqlaydi.

O'smirlarning xulq-atvoridagi «odamovilik» tendensiyasi tajriba guruhida (4,5) va nazorta guruhida esa (3,9) ko'rsatkichlarni qasd qildi. Mazkur holatni ular orasidagi guruhda qabul qilingan normalar va xulq standartlari hamda qadriyatlarni qabul qilishdan o'zini chetga olishi va guruhdan ajralishga moyilligi bilan izohlash mumkin.

«Kurashga tayyorlik» xulq-atvor omili tajriba guruhida (5,9) nazorat guruhida (6,5) ko'rsatkichni qayd qildi. Buni o'smirlardagi guruh hayotida faol ishtirok etishga bo'lgan ishtiyoqi, shaxslararo o'zaro munosabatlartlarda yanada yuqoriroq mavqega ega bo'lishga intilishlari bilan izohlash mumkin.

O‘smirlar xulq-atvoridagi «kurashdan qochish» omili tajriba guruhida (8,6) nazorat guruhida (7,3) ko‘rsatkichlarni qayd qildi. Mazkur holatni o‘smirlarni o‘zaro aloqa, ta’sirlarni chetlab o‘tish, ziddiyat va bahslarda neytralikni (betaraflik) saqlab qolishga intilishi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqot davomida o‘quvchilar tomonidan guruhni idrok etish, «individuallik», «jamoaviylik», «pragmatik» kabi omillar ma’lum darajada ularning xulq-atvorida ijobiy yoki salbiy sifatlarni shakllantirishini aniqlashni ham nazarda tutgandik va bu bo‘yicha asosli empirik natijalar olindi, 3-jadvalga qarang.

3-jadval

Y.V.Zalyubovskayaning «Individ tomonidan guruhni idrok etishni o‘rganish» metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar, n=560

Respondentlar	Mezonlar	Statistik ko‘rsatkichlar	
		M-o‘rtacha arifmetik qiymat	S ² standart og‘ish darajasi
yigitlar (n=340)	individuallik	12,9	7,8
	jamoaviylik	11,8	7,5
	pragmatik	12,4	7,9
qizlar (n=220)	individuallik	10,6	6,2
	jamoaviylik	12,4	7,3
	pragmatik	11,6	7,4

Mazkur empirik natijalaridan ko‘rinadiki, gender jihatdan farqlar aniqlandi. Bunda yigitlarda eng yuqori natija «individuallik» (12,9) omilida qayd etildi. Qizlarda esa eng yuqori natija jamoaviylik (12,4) omilida kuzatildi. Bu natijalar bir qaraganda hayot qonunlariga teskaridek, chunki yigitlar qizlarga nisbatan ko‘proq jamoaviylikni yaxshi ko‘radi, ular qizlarga nisbatan tez jamoa bo‘lib birikadi, degan qarashlarimiz ma’lum darajada asoslanmagan stereotip bo‘lib namoyon etadi. Darhaqiqat, yigitlarning ijtimoiy rol va vazifalari ularning qizlarga nisbatan individualligini oshiradigan asosiy omil ekan. Yigitlarda eng past natija «jamoaviylik» (11,8), qizlarda individuallikda (10,6) namoyon bo‘ldi. Bu esa yigitlarda boshqalarga tayanmasdan, mustaqil ishlash va muvaffaqiyatga erishish istagining yuqoriligini anglatadi. Qizlarda esa, aksincha, o‘z faoliyatini yakka tartibda bajarishga intilish nisbatan pastroq ekanini ko‘rish mumkin. Demak, o‘smir qizlarda birgalikda ishlash va umumiy muvaffaqiyatga erishish istagi, jamoa bo‘lib ishlash, o‘zini o‘zi takomillashtirishda atrof-muhit bilan birgalikda ishlash motivatsiyasi kuchli ekanini kuzatildi.

«Pragmatlik» darajasi esa qizlarga (11,6) nisbatan yigitlarda (12,4) ustun ekan. Bu holatni ham yigitlar jamiyatda ko‘proq o‘z mehnati orqali ko‘p narsalarga erishish uchun aniqroq, puxtaroq maqsadlar qo‘yish va unga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengishni oldindan aniq rejalashtirish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarga egaligi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqot davomida yoshlarda milliy tarbiya shakllanishida ularning hayotdagi ijtimoiy nufuzi omili ta’sirini ham o‘rgandik va asosli hududiy farqlar qayd etildi, natijalar 4-jadvalda berilgan.

4-jadval

M.Kubishkinaning «MAS» so‘rovnomasi bo‘yicha olingan hududiy natijalar, n=560

Omillar	Hudud	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish
Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish	Toshkent	192	9,3	4,7
	Buxoro	205	7,6	3,6
	Navoiy	163	6,4	2,9
Raqobatga intilish	Toshkent	192	8,4	4,1
	Buxoro	205	7,1	3,2
	Navoiy	163	6,5	2,9
Maqsadga erishishga intilish	Toshkent	192	10,3	5,2
	Buxoro	205	9,4	4,8
	Navoiy	163	8,3	4,0

«MAS» metodikasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘smirlar orasida «ijtimoiy nufuz, prestijga intilish»da hududiy jihatdan sezilarli farqlar borligini ko‘rsatdi. Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish motivi kichik shaharlarga nisbatan katta shaharlarda yuqori bo‘lar ekan.

Buni katta shaharlarda odamlarning zich joylashganligi, hayot uchun, kasbi-kor uchun ko‘proq kurashish jihatlari, shuningdek, yoshlarni aynan ijtimoiy nufuz va prestijga intilishi ularning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashi mumkinligi bilan izohlash mumkin.

«Raqobatga intilish» motivi ham katta shaharlarda kichik shaharlarga nisbatan yuqoriroq bo‘lishligini ko‘rsatdi. Mazkur holatni yoshlardagi o‘ziga va ertangi kuniga bo‘lgan ishonch, o‘z maqsadlariga erishishi uchun raqobatga tayyorlik darajalari namoyon bo‘layotgani bilan izohlash mumkin. Demak, yoshlar jamiyatda o‘z ijtimoiy nufuzi, prestijga ega bo‘lishi uchun raqobatga intiladi.

MAS metodikasidan qo‘lga kiritilgan empirik natijalarga ko‘ra o‘smirlar orasida «maqsadga erishishga intilish» motivi ham hududiy jihatdan farqlanadi. Ya’ni mazkur omil bo‘yicha ham katta shaharlarda kichik shaharlarga nisbatan yuqoriroq. Mazkur holatni kata shaharlarda maqsadga erishish uchun ko‘roq mehnat talab etilishi va raqobatsiz mazkur maqsadga to‘laqonli eishish mushkuligi bilan izohlash mumkin. Demak, MAS metodikasi natijalaridan ko‘rinib turibdiki, uchala omil ham kichik sharlarga nisbatan katta shaharlarda ko‘proq ehtiyoj sezilarkan. Buni ota-onalarning farzandini kelajakka tayorlash omili bilan ham izohlash mumkin. Ya’ni kichik shaharlarga nisbatan katta shaharlardagi ota-onalar bolalarini ta’lim-tarbiyasifa ko‘proq sarmoya kiritar ekan, katta hayotga nisbatan raqobatbardosh kadr bo‘lib shakkalanishi uchun ko‘proq e’tibor qaratar ekan.

Tadqiqot davomida ota-onalar va ularning farzandlari uchun milliy tarbiyani ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma ishlab chiqdik va mazkur so‘rovnoma bo‘yicha asosli empirik ma’lumotlarni qo‘lga kiritdik, 5-jadvalga qarang.

5-jadval

«Siz va farzandlaringiz» ijtimoiy psixologik so‘rovnomasi orqali olingan dastlabki natijalar, n=104

Omil	Soni (erkak)	%	Soni (ayol)	%
Loqayd	15	32	13	22
Zolim	13	29	24	43
O‘rtoq	7	14	7	13
Xizmatkor	11	25	14	26
Jami:	46	100	58	100

Ota-onalar bilan olib borilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra «loqaydlik» omili erkaklarda 32% ni, ayollarda 22% ni ko‘rsatdi. Bunga sabab erkaklar ayollarga nisbatan doimiy ko‘chada mehnat faoliyati bilan band bo‘lganliklari uchun farzandlariga ota sifatida onaga nisbatan biroz loqaydroq bo‘ladi. Ona esa, aksincha, kun davomida bolasi bilan ovora bo‘ladi, uning xursandchiligi, injiqliklarini ko‘radi, ehtiyojlarini bajarishga ko‘maklashadi, bu esa ularning avtomatik tarzda etiborli bo‘lishlarini talab qiladi.

2-omil «Zolim» (farzandga nisbatan qattiqqo‘l, talabchan) omili bo‘yicha erkaklar 29%, ayollar esa 43% natija qayd etdi va ayollar erkaklarga nisbatan ustunlik qildi. Bunga sabab o‘z-o‘zidan 1-omilga borib taqaladi. Ayollar kun davomida farzand bilan ovora bo‘lganliklari bois uning yutuq va kamchiliklarini ko‘radi, his qiladi va

ma'lum o'rinda xursand bo'ladi, kamchiliklarini tuzatishga harakat qiladi. Bu usuldan otalarga nisbatan uyda onalar ko'proq foydalanadi.

3-omil «O'rtoq» omili bo'lib, bunda erkaklar 15%, ayollar 14% natija ko'rsatdi. Ushbu ko'rsatkichdan ma'lumki, farzand bilan do'stona munosabatda bo'lishda otalar qisman teng o'rinda turar ekan. Ammo qaysidir ma'noda otalar onaga nisbatan farzandiga o'rtoqlikda biroz ustunlik qiladi, ayniqsa, o'g'il bolalar bilan munosabat o'rnatish va uni saqlab qolishda otaning o'rnini ahamiyatli hisoblanadi. Kerakli vaqtda farzandga ota-ona sifatida to'g'ri maslahat bera olish va yordam qo'lini cho'zish farzand va ota-ona o'rtasidagi do'stona munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

So'rovnoma natijalari bo'yicha 4-omil «Xizmatkor» (farzand tomondan barcha kamchiliklariga ham ko'z yumadigan ota-ona timsoli) omili bo'lib, natijalarga ko'ra erkaklar, ya'ni ota obrazi 25% ni, ayol – ona obrazi 26% va erkaklardan ma'lum bir ustunlikni ko'rsatdi. Buni izohlash uchun so'rovnomadan olingan natijalarga, jumladan, yuqoridagi 3 ta omilga nazar tashlash kifoyi.

Ya'ni bola dunyoga keldiki, ma'lum sabablarga ko'ra otaga nisbatan ona uning yonida ko'proq bo'ladi, yutuq va kamchiliklaridan xabardor bo'ladi, mas'uliyat egasiga aylanadi. Otalar o'z-o'zidan mehnat faoliyati sababli biroz e'tiborsizdek namoyon bo'ladi. Bola ulg'aygan sari injiqlik va kamchiliklari paydo bo'lsa ham, otaga nisbatan ona qattiqqo'llik namoyon qiladi.

MUHOKAMA

Demak yuqoridagi nazariy va empirik tahlillarimiz asosida quyidagicha muhokama va mulohazalar paydo bo'ladi. Jumladan, O'smirda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari bo'yicha nazariy-ilmiy manbalar milliy tarbiya tushunchasining tarkibiy qismini aniqlash va o'smir xulq-atvori va xarakterida milliy fazilatlarini shakllantirish borasida batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi. Milliylik - ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy tamoyili natijasida yig'ilgan madaniy qadriyatlar sintezidir. Milliy tarbiya esa - ana shu madaniy-tadrijiy sintezga asoslangan holda yosh avlodni zamonaviy sharoitga va kelajakka mos ravishda shakllantirish jarayonidir. Shu bois shaxsning milliyligi va zamonaviyligi - uning ijtimoiylashuvining madaniy darajasidir deb aytishimizga asosdir.

Har bir milliy madaniyat - umuminsoniy qadriyatning muayyan ko'rinishi ekan. Ana shu nuqtai-nazardan milliy tarbiya - har bir insonni o'z milliy madaniyati manbaida, ya'ni muayyan umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar asosida shakllantirilishi lozimligini ko'rsatdi. Milliy tarbiya shakllantirishda ijtimoiy rol omili muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Jumladan har bir inson o'z hayoti davomida turli ijtimoiy rollarni o'taydi. Bu rollar mazmuni, ko'lami, namoyon bo'lish jabhalari ilk o'smirdan boshlab ko'payib, kengayib,

murakkablashib, milliylashib boradi. Ana shunday tug'ma va ilk o'zlashtiriluvchi ijtimoiy rollardan biri – shaxsning milliy roli ekanligini ko'rsatdi.

Har bir zamonda shakllanayotgan avlod bilan oldingi avlod vakllari orasidagi milliy fazilatlar, milliy qadriyatlar, milliy xarakter xususiyatlaridagi o'zgarish va tendensiyalarni kuzatib borish, ular orasidagi bog'liqliklarni ijtimoiy psixodiagnostik metodlar orqali doimiy ravishda tekshirib, ahamiyatga molik jihatlarini monitoringini olib borish maqsadga muvofiq ekan. Sharq mutafakkirlarini masala bo'yicha yondashuvlariga asoslanib eng ustuvor jihat tarbiyada ota-onaning roli ekanligi aniqlandi. Oilada farzand tarbiyasi - oila baxti, farzandlarning tarbiyasi yetuk inson bo'lib yetishidagi ota-onaning sa'yi- harakati hisoblanadi. Bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko'ra kamol topib borishligi yana bir bor nazariy jihatdan asoslandi.

Milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omilidan asosiylaridan biri – inson xarakterining milliylilik kasb etishi ekanligi aniqlandi. Shaxsning milliy xarakteri ustuvor psixologik hodisa bo'lib, bu uning milliy xulq-atvorida namoyon bo'ladi, ana shu ko'rsatkichlarga asoslanib u yoki bu xalqqa, millatga mansub kishilar xarakterining modelini - o'rtacha milliy xarakter namunasini yaratish mumkin, degan xulosalarni asoslaydi. O'rganishlarimiz har bir kishining ma'lum milliy muhitdagi xulq-atvorini tushinishda uning bolalikdagi milliy tarbiyaviy ta'sirining nihoyatda katta ahamiyatga egaligini qayd qiladi. Chunki, bolalarning milliy tarbiyaviy ta'sirni qabul qilish jarayoni va kattalarning milliy fe'l-atvorlari orasida izchil aloqa mavjud.

Tarbiyaning milliy xususiyat kasb etishida bir avloddan ikkinchi avlodga o'tib keluvchi an'analar, marosim, udum, ishlab-chiqarish va hayotiy malakalar, afsonalar, xulq-atvor shakllari, bolalarga, o'smirlarga, qariyalarga munosabatlarning o'ziga xosligi katta ahamiyatga kasb etar ekan. O'smirida milliy tarbiyani shakllantirish ishlarida nafaqat geterostereotip (odamning boshqa xalqlar haqidagi bilimlar yig'indisi) omili, balki avtostereotip (o'z xalqi haqidagi bilimlar yig'indisi) kabi omillar bo'yicha asosli, ob'ektiv bilimlarga ega bo'lish kerakligini ko'rsatdi.

O'rganishlarimiz har bir millatda, mamlakatda davom etayotgan tarbiyaviy jarayon umuminsoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismi ekanligini yana bir bor isbotladi. Demak, har bir davlatda olib borilayotgan siyosat kabi, tarbiya siyosati ham umumbashariy ehtiyojlardan kelib chiqib muvofiqlashtirilmog'i kerak ekan. Masalani etnopsixologik o'rganishlarimiz milliy psixologiyani aynan o'sha etnos vakillarining faoliyat, xulq-atvor va muloqatlari jarayonlari orqali o'rganish mumkinligini ko'rsatdi. Bizningcha, milliy tarbiya jarayoning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun ham aynan shu yo'ldan bormoq samaralidir. Zero milliy tarbiya (ichki) millatlararo (tashqi) munosabatlarning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Milliy tarbiya jarayonida makondagi muqimlik va milliy-madaniy jipslikni, birlikni ta'minlovchi etnik, milliy ma'lumotlar sinxron va diaxron shaklda avloddan avlodga uzatilishi aniqlandi.

Demak har bir individ o'ziga xos milliy-madaniy an'analar, me'yorlari bo'lgan, ya'ni bugungi ijtimoiy psixologik tushunchalar bilan aytganda ijtimoiy norma, ijtimoiy qoida, ijtimoiy qonuniyat va ijtimoiy talablar asosida o'zi yashab turgan jamiyatida shakllanar ekan. Ana shu urf-odat, me'yorlar, an'analar ruhida ijtimoiylashuvi uni ana shu madaniy-tarixiy birlikning a'zosiga aylantiradi. Demak milliylashuv jarayoni milliy-ijtimoiy rollar talablaridan kelib chiqib, jamiyatning uzluksiz nazorati ostida samaraliroq amalga oshar ekan.

XULOSA

«Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishinig ijtimoiy-psixologik omillari» mavzusida olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishinig ijtimoiy-psixologik omillari va vositalarini tahlil qilish ta'lim tizimida o'quvchilarni barkamol shahs etib tarbiyalash bilan bog'liq jarayonlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

2. Milliy tarbiya natijasida ijtimoiy taraqqiyotga erishish, madaniy qadriyatlar sintezi va milliy tarbiya asosida yosh avlodni zamonaviy sharoit va kelajakka mos ravishda tarbiyalash jarayoni amalga oshishi mumkin ekanligi tadqiqotda isbotlandi.

3. O'smirlik davrida milliy tarbiyaning shakllanish jarayonini tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu davrda yigit va qizlar xulq-atvorida ijobiy fazilatlarga nisbatan salbiy sifatlarga moyillik ortib borib, «aliyenasiya», «marginalizatsiya», «egotsenrizm», «eskapizm», «abuliya», «apatiya» kabi illatlar namoyon bo'lishi, bu holatlarni ulardagi akseleratsiya va pubertatsiya jaroyonlari bilan izohlash mumkin bo'ladi.

4. Ota-onaning bolaga munosabati natijasida farzandga nisbatan g'amxo'rlik qilish, kuchli hissiy aloqa bildirishni o'rtoqlik (hamkorlik) omiliga bog'liq ravishda kuchli namoyon bo'lishi tufayli o'smirlarda milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy ta'sir etuvchi mustaqillik, muloqotmandlik, kurashga tayyorlik, jamoaviylik, affiliatsiya, tartib-intizom, ko'makni qabul qilish kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ustuvorlik qilishi aniqlandi.

5. Shaxs xususiyatlariga ko'ra xalqimiz orasida ko'proq milliylik kasb etgan va milliy qadriyatga aylangan «mehmondo'stlik», «tinglovchanlik», «muruvvatlilik», «g'amxo'rlik», «hojatbarorlik», «ahillik» va «hurmatlilik» kabi fazilatlar xulqda ustuvor namoyon bo'lishi sababli o'smirlarda milliy tarbiyalanganlikni ta'minlovchi o'z-o'ziga bo'lgan munosabatni ijobiyliigi, o'ziga ishonch, o'z-o'zini hurmat qilish, boshqalardan ijobiy munosabatni kutish va «Men»ni «Biz»ga proeksalanish kabi tayanch mezonlarni differentsiyalash zarur ekanligi isbotlandi.

6. O'quvchilarda tarbiya darajasining namoyon bo'lishi guruhni idrok qilishning individuallik tipi «ahillik», «g'amxo'rlik», «pragmatiklik»ning «muruvvatlilik» bilan teskari, jamoaviylikning «mehmondo'silik», «hurmatlilik» bilan to'g'ri proporsional bog'liqligi tufayli guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasi rivojlanishiga identiv ekanligi dalillandi.

7. Yoshlar tarbiyasi darajasini diagnostikalash natijasida «mehmondo'stlik», «tinglovchanlik», «xojatbarorlik», «g'amxo'rlik», «ahillik» milliy fazilatlarining ijtimoiy maydon ta'sirida namoyon bo'lish tufayli ijtimoiy nufuz, raqobat, maqsadga erishishga intilish ustuvor omillar sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi.

8. Yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirishning ijtimoiy-psixologik modeli shaxsga korreksion-adaptiv ta'sir etishning kommunikativ, persepsiv, interaktiv, didaktik bosqichlarida getereostereotip va avtostereotip qarashlarning o'zaro integrativ rivojlanishi muhimligi tufayli motivatsion baholash, xulq-atvorni nazorat qilish, hissiy, kognitiv, sog'lom sosializatsiya mezonlarini kiritish asosida takomillashtirish mumkin ekanligi isbotlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmon

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 1059-son. 2019-yil 31-dekabr. <https://lex.uz/docs/4676839>

3. Aripova M. "Talabalarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari" nom dis. T.: 2009, - 157 b.

4. Abdurahmonova Z.X. "O'smirda milliy birlik tuyg'usini shakllantirish" nomzodlik dissertatsiyasi. T.: 2006, - 140 b.

5. Anvarova D.M "O'smirlar ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlari" nomzodlik dissertatsiyasi. T.: 2012, - 129 b.

6. Baratov Sh.R. "Istiqlol g'oyasining ijtimoiy psixologik asoslari" "Milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotining ilmiy asoslari" mavzusidagi Res ilmiy-amaliy konf mat. T.: 2002,-B.80-82.

7. Baratov Sh.R., Jabborov X.X. "Ko'k kit" tuzog'iga qarshi kurashishning psixologik mexanizmlari. Psixologiya. Ilmiy jurnal. Buxoro, 2017, 1-son (25) -B.2-9

8. Baratov Sh.R., Jabborov X.X. O'smirda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari /O'quv qo'llanma, Buxoro, 2017, "Durdona" nash. 190 b.

9. Bandura A., Walters R. H. Social learning and personality development. – N.Y., 1963. – P. 329.

10. Дюркгейм Э. Ценностные реальные суждения // Социологические исследования. – М.: издво “Рефл-бут”, 1991, № 2. – С. 109–110.
11. Измайлов А.Э. Народная педагогические воззрения народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Педагогика, 1991. – С. 144.
12. Isoqova M.T. “Milliy an’analar va ijtimoiy omillar ta’sirida ilk o’spirinlarda ma’naviy tassavurlarni shakllanishi”. P.f.n diss. T.: TDPU,1999 y,-178 b.
13. Jabborov X.X. “O’smirda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.
14. Жабборов Хазрат Хусенович. Психологические особенности идеологического влияния “массовой культуры” на человеческий разум. СОЦИАЛЬНЫЙ ПСИХОЛОГ журнал для психологов. Основан в 2000 году в Ярославль. 2016 №2 (32). -С. 56-66.
15. Жабборов Хазрат Хусенович. The influence of psychological protective mechanisms in the formation of the ideological immunity in adolescents. European journal of psychological research vol. 4 No.1, 2017 ISSN 2057-4794.
16. Jabborov X.X.. Ёшларда миллий тарбия шаклланишининг психологик қонуниятлари. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-1-209-219>.
17. Jabborov Kh.Kh.. The study of the problem of national education by eastern thinkers. International Journal of Pedagogics (ISSN – 2771-2281) VOLUME 03 ISSUE 02 Pages: 14-20 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) (2023: 6. 676) OCLC – 1121105677/ Online Link:-<http://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/765>
18. Khazrat H. Jabborov. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FACTORS IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION International Journal of Mechanical Engineering. ISSN: 0974-5823. Vol. 7 No. 2 February, 2022 –B 1838-1843.
19. Мария Земска. Семья и личность. ... – С. 74-75.
20. Маргарет Мид. Культура и мир детства. – М.: Глав. ред. восточ. литературы, 1988. – С. 179.
21. Nishonova Z.T. “Oquvchilarda milliy xususiyatlarni tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari”. T.: Adabiyot uchqunlari.2018.-B.125
22. Quronov M., X.Jabborov “Yosh ota-ona kitobi”.“Muharrir” nashriyoti T.:2018 y.
23. Quronov M., X.Jabborov “Baxtli bola ma’naviyati” nomli qo‘llanma // “Sano-standart” nashriyoti T.:2018 y. 268 b.
24. Васильенко Л.И., В.Е.Ермолаева. Вводн. Ст. Ю.А.Шрейдера.Глобальнѳе проблемѳ и обѳечеловеческие ценности: Пер. с англ. И франц., /Сост. - М.:Прогресс, 1990. – 495 с.